


YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 86 (1685), 2026-yil 1-may, juma



O‘ZBEKISTON — CHEXIYA: HAMKORLIKNING YANGI TARAQQIYOT BOSQIHI STRATEGIK SHERIKLIKKA ASOS YARATADI

Chexiya Respublikasi Bosh vaziri Andrey Babish 29-30-aprel kunlari rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo‘ldi.



Tashrifning ikkinchi kuni Ko‘ksaroy qarorgohida oliy martabali mehmonni rasmiy kutib olish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Qarorgoh oldidagi maydonda faxriy qorovul saf tordidi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Chexiya Respublikasi Bosh vaziri Andrey Babishni samimiy qutlab, uni shohsupaga taklif qildi. Harbiy orkestr ijrosida ikki davlat madhiyalari yangradi. Yetakchilar faxriy qorovul saf oldidan o‘tib, rasmiy delegatsiyalar a‘zolarini qutladi.

Shundan so‘ng Shavkat Mirziyoyev va Andrey Babishning tor doirada va ikki mamlakat delegatsiyalari ishtirokidagi muzokaralari bo‘lib o‘tdi.

Mamlakatlarimiz o‘rtasidagi hamkorlik chuqur tarixiy ildizlarga ega. Zamonaviy diplomatik munosabatlarni o‘rnatilganiga ham 30 yildan oshyapti. Shunday bo‘lsa-da, o‘zaro hamkorlik keyingi yillarda kelibgina barqaror rivojlanmoqda. Buni keyingi sakkiz yilda davlatlarimiz o‘rtasidagi tovar

ayirboshlash hajmi ikki barobar oshgani ham tasdiqlaydi.

Bundan tashqari, barcha sohalarda hamkorlik jadal rivojlanmoqda. Hukumatlar, vazirliklar va idoralar darajasida yaqin aloqalar o‘rnatilgan, ishbiarmonlik va gumanitar almashinuvlar faollashdi. Parlamentlarda “Do‘stlik guruhlari” tashkil etilgan. Hukumatlararo komissiya samarali ishlamoqda.

Mamlakatimizda Chexiya kapitali ishtirokida qirqa yaqin qo‘shma korxonalar

samarali faoliyat yuritmoqda. Bir qator yangi kooperatsiya yo‘nalishlari bo‘yicha ish olib borilmoqda.

Muzokaralarda O‘zbekiston bilan Chexiya o‘rtasidagi amaliy hamkorlikning joriy holati va uni yanada rivojlantirish istiqbollari muhokama qilindi.

Uchrashuv avvalida mamlakatimiz yetakchisi ushbu tashrif O‘zbekiston — Chexiya munosabatlari tarixida sifat jihatidan yangi bosqichni boshlab berishini alohida ta’kidladi. Zero, tashrif doirasida o‘zaro hamkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan muhim kelishuvlarga erishildi.

Bu, ayniqsa, dunyoning turli mintaqalarida davom etayotgan o‘zaro qarama-qarshiliklar, transport-logistika tizimidagi uzilishlar bilan bog‘liq bugungi murakkab sharoitda har ikki davlat uchun manfaatlidir. Binobarin, har ikki tomonda bir-birini to‘ldiruvchi foydalanilmayotgan imkoniyatlar ko‘p. Birgina misol, yurtimizning boy inson kapitali yoki yildan yilga ishlab chiqarish hajmi ortib borayotgan “yashil” energetikasiga Chexiyada ehtiyoj bor. Qolaversa, Chexiya O‘zbekiston uchun Yevropa Ittifoqi bozoriga, o‘z navbatida, mamlakatimiz Chexiya uchun Markaziy Osiyo bozoriga yo‘l ochadi.

Shu bois, muzokaralarda o‘zaro savdo hajmini oshirishga alohida e’tibor qaratildi. Tovar ayirboshlashni, jumladan, mahsulot turlarini kengaytirish orqali 1 milliard dollarga yetkazish vazifasi qo‘yildi. Buning uchun birgalikdagi savdoni rag‘batlantirish maqsadida Chexiyada O‘zbekistonning birinchi sertifikatlash filiali tashkil etilmoqda. Chexiyalik hamkorlar bilan “Yevro-6” standartidagi avtomobillarni sertifikatlash va kvant etaloni bo‘yicha zamonaviy laboratoriya qurilmoqda.

Chexiyaning yetakchi kompaniyalari bilan mashinasozlik, “yashil” energiya, geologiya va muhim xomashyo, kimyo, farmatsevtika hamda boshqa sohalarda loyihalarni amalga oshirishni

o‘z ichiga olgan Texnologik hamkorlik dasturini ishlab chiqish bo‘yicha kelishuvga erishilgani ham tashrif yutuqlaridan biri bo‘ldi.

Shuningdek, infratuzilmani rivojlantirish va “aqli” shaharlar yaratish, muhandislik ishi va raqamlashtirish sohaslarida kooperatsiya uchun mavjud istiqbollari qayd etildi. Xususan, rasmiy tashrifning birinchi kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston — Chexiya biznes forumida e‘lon qilingan loyihaviy tashabbuslar qo‘llab-quvvatlandi.

Tomonlar Eksport kreditlarini sug‘urtalash agentligi va Chexiya Eksport bankining O‘zbekistonda loyihalarni amalga oshirishni qo‘llab-quvvatlash niyatini olqishladi.

Iqtisodiy kun tartibidagi barcha masalalarni ilgari surish uchun Ishbiarmonlar kengashini tuzish va hukumatlararo komissiyaning keyingi yig‘ilishini shu yil avgust oyida Toshkentda o‘tkazish taklif qilindi.

Madaniy-gumanitar sohada, shu jumladan, qo‘shma diplom dasturlari doirasida ta’lim va akademik almashinuvni kengaytirishdan ikki tomon ham manfaatdor ekan tasdiqlandi.

O‘zaro madaniyat va kino kunlari, ko‘rgazma va konsertlarni muntazam ravishda o‘tkazish, shuningdek, mamlakatlar o‘rtasida sayyohlar oqimini ko‘paytirish muhimligi ta’kidlandi. Shu maqsadda ikki mamlakat poytaxtlari o‘rtasida to‘g‘ridan to‘g‘ri aviareysi qayta tiklash masalasi ko‘rib chiqiladi.

Tartibli mehnat migratsiyasi sohasidagi hamkorlik istiqbollari muhokama qilindi. Xalqaro kun tartibi yuzasidan ham fikr almashildi.

Yakunda qabul qilingan qarorlarni o‘z vaqtida amalga oshirish bo‘yicha qo‘shma “yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqishga kelishib olindi.

Muzokaralar yakunida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Chexiya Respublikasi Bosh vaziri Andrey Babish Kengaytirilgan hamkorlikni ilgari surish to‘g‘risida qo‘shma deklaratsiyani imzoladilar.

Shuningdek, iqtisodiyot, sanoat, ilmiy va texnologik hamkorlik, diplomatik kadrlarni tayyorlash, metrologiya laboratoriyasini birgalikda loyihalashtirish va tashkiloti etishni qo‘llab-quvvatlash, metrologiya sohasidagi ilmiy-innovatsion hamkorlik, geologiya sohasidagi hamkorlik, elektropoyezdlarni yetkazib berish to‘g‘risidagi va boshqa ikki tomonlama kelishuvlarni imzolash marosimi bo‘lib o‘tdi.

Oliy darajadagi muzokaralar yakunida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Chexiya Respublikasi Bosh vaziri Andrey Babish Faxriy mehmonlar xiyobonida birgalikda daraxt ekdilar.

Marosim ikki mamlakat xalqlari o‘rtasidagi do‘stlik va o‘zaro anglashuv mustahkamlanib borayotgani, O‘zbekiston — Chexiya ko‘p qirrali munosabatlari rivojlantirishda yangi bosqich boshlanganining ramzi bo‘ldi.

Gap O‘zbekiston — Chexiya hamkorligi haqida borar ekan, o‘zaro munosabatlar nafaqat davlatlararo, balki Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi formatida mintaqalararo ham jadal rivojlanayotganini alohida qayd etish lozim. Keyingi yillarda mintaqalararo tovar ayirboshlash hajmi to‘rt barobar oshgan bo‘lsa, o‘tgan yili Samarqandda o‘tkazilgan “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” birinchi sammitida hamkorlikni yanada rivojlantirishga doir samarali kelishuvlarga erishilgandi.

Umuman, bularning barchasi — yangi O‘zbekistonning dunyoga ochilgani, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning qat’iy siyosiy irodasi, uzoqni ko‘zlab amalga oshirgan islohotlari hisobiga dunyoning eng rivojlangan davlatlari bilan teng huquqli diplomatik aloqalar yangi bosqichga olib chiqilgani samarasidir. Shu bilan Chexiya Respublikasi Bosh vaziri Andrey Babishning mamlakatimizga rasmiy tashrif yakunlandi.

Avazbek XUDOYQULOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

EKOLOGIK BARQARORLIK VA TABIATNI MUHOFAZA QILISH BO‘YICHA TAKLIFLAR KO‘RIB CHIQLIDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 30-aprel kuni tabiatni muhofaza qilish, ekologik barqarorlikni ta’minlash, chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish hamda muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni rivojlantirish bo‘yicha takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini joriy etish va ekologik madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, sanoat, qurilish, transport va kommunal sohalardagi jadal rivojlanish tabiatga ta’sir etuvchi omillarni qat’iy nazorat qilishni, ekologik talablarga rioya etishni yanada kuchaytirishni taqozo etmoqda.

Taqdimotda ekologiya sohasidagi huquqbuzarliklar holati tahlil qilindi. Qayd etilganidek, 2024-yilda 47 mingdan ziyod ma’muriy huquqbuzarlik aniqlangan bo‘lsa, 2025-yilda ular soni 59 mingdan oshgan. Amaldagi tartibda jarimalar miqdori yetkazilgan ekologik zararga mutanosib emasligi sababli ba’zi korxonalar uchun huquqbuzarlikni bartaraf etishdan ko‘ra,

jarima to‘lab, faoliyatni davom ettirish qulayroq bo‘lib qolmoqda.

Shu bois, yuridik shaxslarga nisbatan moliyaviy sanksiyalarni qayta ko‘rib chiqish, ularni tabiatga yetkazilgan zarar miqdoriga bog‘lash va xalqaro amaliyotga yaqinlashtirish taklif etildi. Jumladan, daryo o‘zamlaridan noruda materiallarni noqonuniy qazib olish, suv resurslarini ifloslantirish, daraxt va butalarni g‘ayriqonuniy kesish, atmosfera havosiga belgilangan me’yordan ortiq tashlamalar chiqarish, qurilish maydonlarida chang va qum zarrachalarining havoga ko‘tarilishiga yo‘l qo‘yish, chiqindilarni belgilanmagan joylarda yoqish kabi holatlar uchun ta’sirchan moliyaviy choralar joriy etish ko‘zda tutilgan.

Bu jarayonda ma’muriy jarima va tabiatga yetkazilgan zarar uchun kompensatsiya to‘lovini yagona moliyaviy sanksiyaga birlashtirib, korxonalar aybini tan olgan holatlarda

uni Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi tomonidan qo‘llash, nizoli holatlarda esa masalani sud tartibida ko‘rib chiqish va hal etish tartibini joriy qilish taklif etildi.

Taqdimotda Ugom daryosining tabiiy muvozanatini tiklash va uning noyob tabiiy merosini saqlash bo‘yicha takliflar ko‘rib chiqildi.

Ugom daryosi va uning havzasi Ugom — Chotqol milliy tabiat bog‘i tarkibidagi muhim ekologik hududlardan biri hisoblanadi. Bu yerda o‘nlab noyob o‘simlik va hayvonot turlari, shu jumladan, Qizil kitobga kiritilgan turlar mavjud. Daryo Chirchiq havzasining suv ta’minotida ham muhim o‘rin tutadi.

Tahlillarga ko‘ra, keyingi yillarda Ugom daryosida suv sarfi kamayib, suv sifatiga ta’sir etuvchi omillar ko‘paygan. Bu holat qirg‘oqlarning yemirilishi, fauna va o‘simlik dunyosiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi, bioxilma-xillik qisqarishi xavfini oshirmoqda.

Shu bois, Ugom daryosi va unga tutash hududlarni davlat gidrologik tabiat yodgorligi deb e’lon qilish, sohilbo‘yi va suvni muhofaza qilish zonalarida tabiiy gidrologik tizimga ta’sir ko‘rsatuvchi qurilish va yer ishlarini cheklash taklif etildi. Shuningdek, suv muhofaza zonalaridagi obyektlarni xatlovdan o‘tkazish, ularning suv sifati va biofaunaga ta’sirini baholash vazifalari belgilandi. Ekologik talablarga javob bermaydigan faoliyatlarni to‘xtatish yoki boshqa joyga ko‘chirish masalasi ko‘rib chiqiladi.

Qolaversa, daryoning gidrologik va ekologik holatini barqaror rivojlantirish bo‘yicha “Ugom daryosi ekotizimini yaxshilash” master rejasini ishlab chiqish, sohilbo‘yi va muhofaza zonalarida yer degradatsiyasining oldini olish uchun daraxt va butalar ekish ko‘zda tutilgan.

► Davomi 2-beta

ANDREY BABISH: “O‘ZBEKISTONNING JADAL RIVOJLANAYOTGANI, BOY RESURSLARI VA ISTE‘DODLI INSONLARI SALOHİYATIDAN HAYRATDAMAN”

Chexiya Bosh vaziri Andrey Babish O‘zbekistondan ketish arafasida “Toshkent-Humo” xalqaro aeroportida “Dunyo” AA muxbiriga eksklyuziv intervyu berdi.

“Prezidentingiz delegatsiyamizni samimiy qabul qilganidan juda mamnunman, bizni juda iliq kutib olishdi”, — dedi Chexiya hukumati rahbari. — “O‘zbekistonning har tomonlama jadal rivojlanib borayotgani, resurslarga boyligi, bu yerda iste‘dodli insonlar ko‘pligi, ayniqsa, yoshlarning salohiyati menda katta taassurot qoldirdi.

Islom sivilizatsiyasi markazini ham borib ko‘rdik. Germaniyada ishlab chiqarib 400 nafar o‘zbekistonlik hamshira nemis tilini o‘rganayotgan maktabda ham bo‘ldim. Bu biz uchun juda qiziqarli. Prezidentingiz tashabbusi bilan Chexiyaning ŠKODA Transportation kompaniyasi bilan 10ta yozgud bo‘yicha birinchi shartnomani imzolashga muvaffaq bo‘ldik. Ishonchim komilki, bu hali boshlanishi. Albatta, kompaniyalarimiz qo‘shma korxonalar tashkil etish va aholini ish bilan ta’minlashdan juda manfaatdor.

Men 2019-yilda Bosh vazir sifatida birinchi muddatimda bu yerda bo‘lmaganimdan chindan ham afsusdaman. Chunki keyingi ikki yil COVID sababli ancha vaqt yo‘qotdik. Ammo hozir biz oldinga harakat qilishga tayyormiz. Prezidentingizdan hamkorligimizning barcha yo‘nalishlari aks etgan juda yaxshi kitob oldik.

Yana bir bor ta’kidlayman, bu yerda ekanimdan juda xursandman. O‘zbekiston ajoyib insonlar yashaydigan go‘zal mamlakat. Men uchun bu tashrif juda muvaffaqiyatli bo‘ldi.

Mamlakatda iqtisodiy o‘sish yuqori sur‘atda. Davlat qarzi past va zaxiralari katta. Sizlar oltin va kumush eksport qilaysizlar, katta mis zaxiralarga ham egasizlar. Xomashyo eksportiga yo‘l qo‘ymaslik juda to‘g‘ri strategiya. Xomashyoga soliq joriy etilgani kompaniyalarni uni qo‘shimcha qiymatli tayyor mahsulotga aylantirishga undashini bilib oldim.”

Chexiya hukumati rahbari Ko‘ksaroy qarorgohida bo‘lib o‘tgan muzokaralarda ko‘tarilgan xalqaro mavzularga to‘xtalar ekan, O‘zbekiston Prezidentingiz “Biz hozir dunyoda sodir bo‘layotgan barcha urushlarni to‘xtatishimiz kerak. Odamlar tinchtotuv yashashi kerak”, degan fikriga to‘liq qo‘shilishini alohida ta’kidladi.

“Prezidentingiz ajoyib yetakchi va men bunday davlat rahbari bilan samarali muloqot qilganimdan juda xursandman”, — deya xulosa qildi Chexiya Bosh vaziri.

“Dunyo” AA

O‘Z TARIXI VA MADANIYATINI ANGLAGAN JAMIYAT MILLIY YUKSALISHGA ERISHADI

Prezidentimizning shu yil 27-28-aprel kunlari Farg‘ona viloyatiga tashrifi xalqimizning uzoq kutilgan orzu-umidlarini ro‘yobga chiqarish, yangilanishlar ostonasiga qadam qo‘yishiga puxta zamin yaratdi.

Viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalari yuzasidan o‘tkazilgan yig‘ilishda, avvalo, keyingi yillarda hudud

iqtisodiyotida ro‘y bergan o‘zgarishlarga alohida o‘xtalib o‘tilgandi.

► Davomi 2-beta

TAMADDUN

tafakkuri

“Tamaddun tafakkuri”ning bugungi sahifalarida Toshkentda qad rostlagan dunyoning sakkizinchi mo‘jizasi, Uchinchi Renessans poydevori — Islom sivilizatsiyasi markazi haqida o‘qib, jahonning nufuzli matbuot nashrlarida e‘lon qilingan e’tiroflar bilan tanishasiz. Markaz joylashgan maydon — Xastimomning fusunkor oqshomni tomosha qilayotgan tashrif buyuruvchilarning hayratiga quloq solib, XIV asrning oltin siri hisoblangan bir eksponat tarixidan boxabar bo‘lasiz.

► 3

O'ZBEKISTON VA CHEXIYA IKKI TOMONLAMA MUNOSABATLARNI KENGAYTIRILGAN STRATEGIK SHERIKLIK DARAJASIGA KO'TARMOQDA

XORIJII EKSPERTLAR TOSHKENTDAGI OLIY DARAJADAGI O'ZBEKISTON – CHEXIYA SAMMITI YAKUNLARI HAQIDA

Chexiya Bosh vaziri Andrej Babishning O'zbekistonga rasmiy tashrifi doirasida Ko'ksaroy qarorgohida ikki tomonlama muzokaralar bo'yicha o'tdi. Yetakchilar ko'p qirrali hamkorlikning bugungi holati va uni yanada rivojlantirish istiqbollari ko'rib chiqildi, ikki tomonlama munosabatlarning barqaror sur'atini e'tirof etdi.

Iqtisodiy hamkorlik masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Tovar ayirboshlash hajmini 1 milliard dollarga yetkazish, o'zaro yetkazib berish nomenklaturasi kengaytirish va sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirish chora-tadbirlari muhokama qilindi. Mashinasozlik, "yashil" energetika, kimyo va farmatsevtika sanoati, transport va logistika, geologiya va muhim resurslarni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlar sifatida qayd etildi.

Texnologik hamkorlik, raqamlashtirish, infratuzilmani rivojlantirish va "aqlli" shaharlarni yaratishga alohida e'tibor qaratildi. Chexiyaning yetakchi kompaniyalari ishtirokida texnologik kooperatsiya dasturini tayyorlash, qo'shma loyihalarni ekspertini muvofiqlashtirish jihatidan va sug'urtaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish bo'yicha kelishuvlarga erishildi.

Tomonlar savdo infratuzilmasini mustahkamlash, jumladan, sertifikatlashtirish mexanizmlarini yaratish va laboratoriya bazasini rivojlantirish masalalarini ham muhokama qildi. Bu mahsulotlarning ikki mamlakat bozorlariga kirishini osonlashtiradi. Iqtisodiy hamkorlikni muvofiqlashtirish maqsadida Ishbilarmonlar kengashini tuzish va Hukumatlararo komissiyani osonlashtirish yig'ilishini Toshkent shahrida o'tkazish taklif etildi.

Kun tartibida madaniy-gumanitar yo'nalishga alohida e'tibor qaratildi. Ta'lim va akademik hamkorlikni kengaytirish, ikki tomonlama diplom dasturlarini rivojlantirish, madaniy almashinuvlarni, shu jumladan madaniyat kunlari, kinofestivallari va ko'rgazmalarni tashkil etish bo'yicha fikr almashildi. Sayyohlar oqimini ko'paytirish chora-tadbirlari, jumladan, ikki mamlakat poytaxtlari o'rtasida to'g'ridan to'g'ri aviaqatnovlarni qayta tiklash masalalari alohida ko'rib chiqildi.

Muzokaralar yakunida Prezident Shavkat Mirziyoyev va Bosh vazir Andrej Babish o'rtasida Kengaytirilgan hamkorlikni ilgari surish to'g'risida qo'shma deklaratsiya, iqtisodiyot, sanoat, fan va texnologiyalar, metrologiya, geologiya, diplomatik kadrlar tayyorlash va elektropoyezdlar yetkazib berishni qamrab olgan ikki tomonlama bitimlar to'plami imzolandi.

O'zbekiston — Chexiya sammitining samarali yakunlari xorijiy ekspert-tahlil doiralarning e'tiborida bo'ldi.

Karlos Uriarte SANCHES, Ispaniyadagi Umumevropa Itifoqi prezidenti, professor:



— Chexiya Bosh vazirining O'zbekistonga rasmiy tashrifi ikki tomonlama munosabatlar rivojida muhim ahamiyatga ega. So'nggi yillarda ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar izchil rivojlanib, yangi bosqichga ko'tarilmoqda.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan puxta o'ylangan va izchil siyosat tufayli mamlakat tashqi siyosati yanada ochiq, pragmatik va o'zaro manfaatli hamkorlikka yo'naltirilgan tus oldi. Bu Yevropa davlatlari, jumladan, Chexiya bilan hamkorlikni faollashtirishga va uni aniq iqtisodiy hamda investitsiyaviy loyihalar bilan boyitishga imkon berdi.

Bugungi kunda O'zbekiston va Chexiya o'rtasidagi hamkorlik nafaqat mustahkam tarixiy asosga, balki yuqori darajadagi faol siyosiy muloqotga ham tayanadi. Muntazam aloqalar va o'zaro tashriflar tomonlar o'rtasidagi ishonch yuqori ekanini hamda sheriklikni rivojlantirishga bo'lgan intilishni ko'rsatadi.

Oliy darajadagi muzokaralar va qo'shma biznes-forum o'tkazilishi alohida ahamiyatga ega bo'lib, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy

hamkorlikni kengaytirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Qariyb yettita ikki tomonlama hujjat imzolangan esa tomonlar qo'shma loyihalarni amaliy bosqichga o'tkazishga tayyor ekanini tasdiqlaydi. Chexiya biznes doiralarning O'zbekistonga bo'lgan qiziqishi ortib borayotganini alohida qayd etish lozim. Bu mamlakatda iqtisodiyotni liberalashtirish, investitsiya muhitini yaxshilash va xorijiy investorlar uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar bilan bog'liq.

Gumanitar va ta'lim sohasidagi hamkorlik aloqalari ham tobora rivojlanmoqda. Chexiyada tahsil olayotgan o'zbekistonlik talabalar sonining ortishi, ilmiy va madaniy aloqalarning kengayishi ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarning uzoq muddatli asosini mustahkamlaydi.

Umuman olganda, Bosh vazir Andrej Babishning tashrifi strategik sheriklikni yanada rivojlantirish va ikki mamlakat manfaatli yo'lida qo'shma loyihalarni amalga oshirish uchun yangi istiqbollarni ochib berdi.

Yunus Emre KANAT, Strategik tadqiqotlar va taraqqiyot markazi boshqaruvi raisi (Turkiya):

— Bosh vazir Andrej Babishning 29-30-aprel kunlari O'zbekistonga amalga oshirgan tashrifi oddiy protokol tadbiri emas, balki ancha keng siyosiy va iqtisodiy ahamiyatga ega voqeadir. Bu Yevropaning Markaziy Osiyoga bo'lgan qiziqishi nafaqat saqlanib qolayotgani, balki tobora ortib borayotganidan dalolat beradi.

Institutsional jihat alohida e'tiborga molik. O'zbekistonning Chexiyadagi



elchixonasi hali rasman ochilmagan bo'lsa-da, tayyorgarlik jarayonida ham samarali ish mexanizmlarini yo'lga qo'yishga va yuqori darajadagi aloqalarni tashkil etishga sezilarli hissa qo'shmoqda.

Bunday jadal natijalar ko'p jihatdan ikki davlat o'rtasidagi yuqori darajadagi ishonch va konstruktiv, do'stona munosabatlar tufayli yuzaga keldi. Bu esa qulay siyosiy muhit va o'zaro manfaatdorlik yangi diplomatik missiyalar hatto qisqa muddatda ham amaliy natijalar berishi va hamkorlikni kengaytirishga mustahkam poydevor yaratishini ko'rsatadi.

Toshkentda O'zbekiston — Chexiya biznes-forumi bo'lib o'tdi. Bunday platformalar bugungi kunda siyosiy kelishuvlarni tezkor ravishda amaliy biznes shartnomalariga aylantiradigan hamkorlik muhitini shakllantirmoqda. Bu endilikda shunchaki fikr almashish emas, balki sanoatdan innovatsiyalargacha bo'lgan aniq sohalaridagi keng ko'lami hamkorlikdir.

Uchrashuvlarda qator ikki tomonlama hujjatlarning imzolangan alohida e'tiborga molik. Muhimi, bu yerda gap umumiy yoki deklarativ siyosiy kelishuvlar haqida emas, balki amaliy va pragmatik yondashuv haqida ketmoqda. Tomonlar aniq bayonotlardan ko'ra, yaqin kelajakda sezilarli natija berishi mumkin bo'lgan hamkorlik mexanizmlariga tayanayotgani bilan ajralib turibdi.

Turkiya nuqtayi nazaridan, O'zbekiston — Chexiya hamkorligining faollashuvi keng-roq mintaqaviy tendensiyaning mantiqiy davomi sifatida ko'rinadi. O'zbekiston hamkorlar doirasini izchil kengaytirib, mintaq bo'yicha asosiy investitsiya va hamkorlik markazlaridan biriga aylanmoqda. Bu esa nafaqat ikki tomonlama aloqalarni mustahkamlaydi, balki ko'p tomonlama iqtisodiy hamkorlik uchun ham qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu tashrif shunchaki diplomatik kalendaridagi navbatdagi tadbir emas, balki chuqurroq strategik o'zgarishning ifodasidir. O'zbekiston Yevrosiyo makonida faol va talabgir davlat sifatida o'z o'rnini tobora mustahkamlab bormoqda.



Aleksandr VOROBYOV, Rossiya jamoatchilik diplomatiyasi va jahon siyosati tahlil markazi direktori, Xalqaro ishlar bo'yicha kengashi eksperti:

— Chexiya Bosh vaziri Andrej Babishning ushbu tashrifi Toshkentning ko'p vektorli tashqi siyosat strategiyasida muhim o'rin tutadi. Chunki O'zbekiston uchun nafaqat Yevropa Itifoqi bilan, balki alohida Yevropa davlatlari bilan ham ikki tomonlama aloqalarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Chexiya Sharqiy Yevropadagi sanoat va iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlardan biri bo'lib, ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik yangi iqtisodiy imkoniyatlar eshigini ochishi mumkin. Ayniqsa, investitsiyalar, sanoat kooperatsiyasi va texnologiyalar almashinuvi yo'nalishlari ustuvor ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston va Chexiya o'rtasida iqtisodiyot, sanoat, ilmiy-texnologik hamkorlik, diplomatik kadrlarni tayyorlash, shuningdek, metrologiya laboratoriyasini birgalikda loyihalashtirish va tashkil etish, metrologiya sohasidagi ilmiy-innovatsion hamkorlikni kengaytirish istiqbolli yo'nalishlardan hisoblanadi.

Ikki davlat o'rtasidagi aloqalar faqat savdo bilan cheklanib qolmasdan, innovatsiya va texnologik hamkorlik yo'nalishlarida ham izchil kengayib borayotganini alohida ta'kidlash kerak.

Fikrimcha, Chexiya Bosh vazirining tashrifi O'zbekistonning xalqaro maydondagi iqtisodiy mavqeini mustahkamlash, yangi investorlarni jalb qilish va Yevropa bozori bilan integratsiyani kuchaytirishga xizmat qiladi.

Ilgar VELIZADE, o'zbekistonlik taniqli siyosatshunos va tahlilchi:

— O'zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalarini faol ravishda kengaytirmoqda. Mamlakat iqtisodiyotida liberalashuv va investitsiyalarni jalb qilish siyosati izchil davom etmoqda. Shu sababli, O'zbekiston faqat bozor yoki xo'mashyo manbai emas, balki sanoat, energetika, infratuzilma va logistika sohalarida aniq loyihalar taklif qila oladigan ishonchli hamkor sifatida shakllanmoqda. Shuningdek, uning geografik joylashuvi Yevropa va Osiyo o'rtasidagi transport yo'laklarida muhim o'rin tutadi.

Shu nuqtayi nazardan, Chexiya Bosh vazirining tashrifi nafaqat ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikni, balki Yevropa davlatlarining Markaziy Osiyodagi ishtiroki kengayib borayotganini ham ko'rsatadi.



Chexiya uchun O'zbekiston mashinasozlik, energetika va transport infratuzilmasi sohalarida hamkorlik qilish uchun istiqbolli yo'nalish hisoblanadi. Bu esa Pragaga tashqi iqtisodiy aloqalarni diversifikatsiya qilish va ajrim an'anaviy bozorlarga bog'liqlikni kamaytirish imkonini beradi.

O'zbekiston tomoni esa Chexiya va Yevropa davlatlari bilan hamkorlikni kengaytirishdan manfaatdor. Bu iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, yangi investitsiyalar jalb etish va Yevropa bozorlariga chiqish imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, O'zbekiston ko'p vektorli tashqi siyosat yuritib, bir davlatga ortiqcha qaram bo'lib qolmaslikka intiladi. Bu uning tashqi iqtisodiy barqarorligini mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytganda, bo'lib o'tgan muzokaralar Toshkent va Praga hamda O'zbekiston va Markaziy Yevropa davlatlari o'rtasida uzoq muddatli va o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

"Dunyo" AA

www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news

EKOLOGIK BARQARORLIK VA TABIATNI MUHOFAZA QILISH BO'YICHA TAKLIFLAR KO'RIB CHIQLDI

Boshlanishi 1-betda

Chiqindilarni boshqarish sohasidagi ishlar ham atroflicha tahlil qilindi. 2025-yilda sanitar tozalash xizmati qamrovi mahallalar kesimida 88 foizga yetdi, sohaga maxsus texnikalar, motorollerlar va konteynerlar yetkazib berildi, 132 ta poligon atrofi ko'kalamzorlashtirildi, 47 ta poligon faoliyati to'xtatildi.

Joriy yilda sanitar tozalash korxonalariga qo'shimcha maxsus texnika va konteynerlar yetkazib berib, qamrovini 90 foizga yetkazish, 18 ta poligoni rekultivatsiya qilish, 2030-yilga borib, poligonlar sonini 50 foizga qisqartirish rejalashtirilgan.

Chiqindilarni qayta yuklash stansiyalarini qurish orqali logistika xarajatlarini kamaytirish, saralash va qayta ishlash hajmini oshirish, poligonlarga tushadigan yuklamani qisqartirish muhimligi ta'kidlandi. 2026-yilda 28 ta, 2030-yilgacha esa 70 ta qayta yuklash stansiyasini qurish ko'zda tutilgan.

Maishiy chiqindilarni yoqish orqali elektr energiyasi ishlab chiqarish bo'yicha yirik investitsiya loyihalarining borishi to'g'risida ham axborot berildi. Umumiy qiymati 933 million dollar bo'lgan 6 ta zavodni qurish ishlari Andijon, Namangan, Farg'ona, Samarqand, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlarida amalga oshirilmoqda. Bu zavodlar ishga tushgach, yiliga 3,6 million tonna qattiq maishiy chiqindi qayta ishlanib, 1,6 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi. Keyingi bosqichda 633 million dollarlik yana 5 ta zavod qurish bilan bog'liq ishlarni boshlashga ko'rsatma berildi.

Xavfli chiqindilarni boshqarish bo'yicha MDH hududida ilk integratsiyalangan platforma yaratish taklif qilindi. Navoiy viloyatida amalga oshirilishi rejalashtirilgan mazkur investitsiya loyihasi doirasida xavfli

chiqindilarni laboratoriyada tavsiflash, maxsus poligon tashkil etish, chiqindilardan RDF yoqilg'i ishlab chiqarish, fizik-kimyoviy va termik qayta ishlash tizimini yo'lga qo'yish nazarda tutilgan.

Loyiha qiymati 260 million dollar bo'lib, yiliga 330 ming tonna xavfli chiqindini qayta ishlash quvvati yaratiladi. Uning amalga oshirilishi ekologik barqarorlikni ta'minlash, yangi standartlar va ilg'or texnologiyalarni joriy etish, mahalliy kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Qayd etilganidek, 2017-yilda qurilish chiqindilari hajmi 1,2 million tonnani tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda 1,9 million tonnaga yetgan.

Shu munosabat bilan qurilish chiqindilarni "hosil bo'lishdan utilitatsiyagacha" bo'lgan jarayonini to'liq nazorat qiladigan raqamli platforma yaratish, chiqindilar harakatini GPS orqali real vaqt rejimida kuzatish, poligonlarda saralash va qayta ishlash komplekslarini tashkil etish taklif etildi.

Shuningdek, qurilish obyektlarini qabul qilishda chiqindilarni utilitatsiya qilish bo'yicha shartnomalar shartlari bajarilganini majburiy talab sifatida belgilash, noqonuniy tashlash holatlarini foto va video qayd etish orqali aniqlash hamda javobgarlik choralarni kuchaytirish nazarda tutilmoqda.

Ta'dimotda muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni rivojlantirish, noyob o'simlik va hayvonot dunyosini saqlash bo'yicha loyihalar ham ko'rib chiqildi. Xususan, "Farg'ona" milliy tabiiy bog'i tarkibidagi "Yozyovon" tabiiy yodgorligi hududini muhofaza qilish, dendrologik bog' tashkil etish, kuzatuv minoralari, maxsus dronlar va raqamli monitoring tizimlari orqali nazoratni kuchaytirish rejalashtirilgan.

Ushbu hududda tashrif markazi tashkil etish, piyoda sayr marshrutlari, qushlarni kuzatish maydonlari, foto va panorama

nuqtalari, ilmiy-ma'rifiy ekskursiyalar yo'lga qo'yilishi rejalashtirilmoqda.

Shuningdek, "Ovjazsoy — Moviy tog'lar" milliy tabiiy bog'i hududida ham ekologik turizmni rivojlantirishga qaratilgan obyektlar barpo etish takliflari ko'rib chiqildi. Bunda tabiiy manzaralar va tog' ekotizimlarini asrab-avaylagan holda sayyohlar uchun qulay infratuzilma yaratishga alohida e'tibor qaratiladi.

Ta'dimotda joriy yilda Samarqand shahrida o'tkazilishi rejalashtirilgan "ECO EXPO Central Asia 2026" xalqaro ko'rgazmasi va Global ekologik jamg'armaning 8-Assambleyasiga tayyorgarlik masalalari ham muhokama qilindi.

Global ekologik jamg'arma 186 ta ishtirokchi davlatni birlashtirgan yirik xalqaro moliya instituti bo'lib, O'zbekiston unga 1995-yilda qo'shilgan. Assambleyaning Samarqandda o'tkazilishi Yevropa, Kavkaz va Markaziy Osiyo mintaqasida ilk bor tashkil etilayotgan yirik ekologik anjuman bo'ladi. Tadbirda 186 davlatdan 2,5 ming nafar ishtirokchi, 40 ta donor davlat, 50 dan ziyod nufuzli tabiiy muhofaza qilish tashkilotlari va xalqaro ekspertlar ishtirok etishi kutilmoqda.

"ECO EXPO Central Asia 2026" ko'rgazmasi esa mahalliy sanoat, hokimliklar, xalqaro moliya institutlari, innovatsion "yashil" texnologiyalar provayderlari va investorlar o'rtasida hamkorlikni kengaytirishga xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbari taqdim etilgan takliflarni ma'qullab, tabiiy muhofaza qilish sohasida nazorat va javobgarlikni kuchaytirish, chiqindilarni boshqarishda zamonaviy tizimlarni joriy etish, suv resurslari va bioxilma-xillikni asrash, muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarni ilmiy asosda rivojlantirish bo'yicha aniq topshiriqlar berdi.

O'ZA

O'Z TARIXI VA MADANIYATINI ANGLAGAN JAMIYAT MILLIY YUKSALISHGA ERISHADI

Boshlanishi 1-betda

Bugun Farg'onada katta o'zgarishlar, yangilanishlar bo'lmoqda. Buni so'nggi yillarda viloyatda 8 milliard 200 million dollar investitsiya hisobiga 8000 ta zamonaviy quvvat ishga tushirilgani, 13 ming 500 ta kichik va o'rta korxonalar tashkil etilib, ularning soni qariyb 2 karra oshgani misolida ko'rish mumkin.

Faol islohotlar tufayli yalpi hududiy mahsulot 1,7 barobar, sanoat 1,5 barobar, xizmatlar 3 barobar o'sdi. So'nggi to'rt yilda ishsizlik 9,2 foizdan 4,6 foizga, kambag'allik darajasi esa 11,6 foizdan 5,2 foizga tushdi. Bu aholining yashashi uchun qulay shart-sharoit yaratish barobarida hududlarni rivojlantirishda ham muhim ahamiyat kasb etayotir.

Davlatimiz rahbarining Qo'qon va Marg'ilon shaharlarining boy adabiy merosi, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish va milliy san'at turlarini qo'llab-quvvatlash borasida ilgari surgan tashabbuslari mamlakat ma'naviy hayotida yangi bosqich boshlanayotganidan dalolat beradi. Zero, bugungi taraqqiyot faqat iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan birga jamiyatning ma'naviy salohiyati bilan ham belgilanadi.

Farg'ona vodiysi, ayniqsa, Qo'qon shahri azaldan adabiyot va ma'rifat beshigi bo'lib kelgan. Bu zamindan yetishib chiqqan adiblar, shoirlar nafaqat o'zbek, balki jahon adabiyotiga munosib hissa qo'shgan. Shu bois, Prezidentimiz Qo'qonni UNESCOning "Adabiyot shahri" maqomiga munosib, deya ta'kidladi. Biroq bu



Nuqtayi nazar



Rahmatilla SHUKUROV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

boy meros haligacha to'liq o'rganilmagani, tizimlashtirilmagani, ko'plab qo'lyozmalar, tarixiy manbalar va adabiy an'analar ilmiy tadqiq etilmagani, ularni jamlash va raqamlashtirish ishlari yetarli darajada emasligi madaniy merosdan to'liq foydalanish imkonini cheklab qo'yadi.





TAMADDUN

tafakkuri

O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi yoshlarimiz orasidan yangi xorazmiylar, beruniy va ulug'beklar, farg'oniy va ibn sinolar, buxoriy va termiziyalar yetishib chiqishi uchun mustahkam ma'naviy maydon bo'lishi kerak. Bu – barchamizning ezgu niyatimizdir.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti



IKKI RENESSANS GUVOHI VA UCHINCHI RENESSANS POYDEVORI yoxud dunyoning Toshkentda qad rostlagan sakkizinchi mo'jizasi haqida

Jahon matbuoti markaz haqida

O'TMISH, BUGUN VA KELAJAKNI BOG'LOVCHI INTELLEKTUAL KO'PRIK

Minbar



Islom HAMRO, jurnalist

Ma'lumotlarga qaraganda, bugungi kunda yer yuzida yetti mingga yaqin millat va elat yashaydi. Ana shu millat va elatlarning orasida bor-yo'g'i ikki yuzga yaqini o'z mustaqil davlati, demakki, o'z hududi, bayrog'i, madhiyasi, pul birligi va eng asosiysi, o'z davlat tiliga ega millatlar hisoblanadi.

hissasini o'zida aks ettirgan, muqaddas dinimiz tarixini mujassam etgan ilmiy-ma'rifiy maskan ekani bilan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu markaz uzoq asrlar o'tmish va bugun o'rtasida mustahkam va muhtasham ko'priki sifatida xizmat qilajak. Shubhasiz, islom sivilizatsiyasi insoniyat tarixida beqiyos o'rin tutadi. U faqatgina diniy qarashlar majmui emas, balki keng qamrovli madaniy, ilmiy va falsafiy bilimlar tizimi sifatida o'n to'rt asr davomida shakllangan. Ayniqsa, o'rta asrlarda islom dunyosi ilm-fan taraqqiyotining markazi edi. Bu davrda matematika, astronomiya, tibbiyot, geografiya, falsafa kabi ko'plab fanlar jadal rivojlandi. Ilmiy tafakkur erkinligi, izlanish va tajriba madaniyati G'arbu Sharq bo'yab keng yoyildi. Bu, o'z navbatida, tamaddunning yangi bosqichini boshlab berdi. Markaziy Osiyo bu jarayonlarning yuragi bo'ldi. Aynan shu hududda yetishib chiqqan buyuk allomalar jahon ilm-fani rivojiga beqiyos hissa qo'shdilar. Ular yaratgan ilmiy asarlar asrlar davomida dunyo ilmiy tafakkuriga yo'l ko'rsatib keldi. Birinchi Renessans deb ataluvchi ilk Uyg'onish davrida ilm-fan mislsiz taraqqiy etdi. Al Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Ahmad Farg'oniy kabi buyuk qomusiy ajdodlarimizning ilm tafakkuri orqali algebra, trigonometriya, tibbiyot va astronomiya

Ajdodlarimizning ilmiy merosi keyinchalik Yevropa orqali butun dunyoga tarqaldi. Ko'plab asarlar lotin tiliga tarjima qilinib, jahon bo'yab ilm-fan rivojiga turki berdi. Ayni shu asoslar islom sivilizatsiyasining jahon taraqqiyotidagi o'rni naqadar ulkan ekanini ko'rsatadi. Demak, bu merosni jamlash va targ'ib qilish nihoyatda muhimdir. Islom sivilizatsiyasi markazi aynan shu vazifani bajaruvchi maskan sifatida maydonga chiqdi. Markazni barpo etish g'oyasi ilk bor Prezidentimiz tomonidan 2017-yilda BMT minbaridan turib ilgari surilgani. Loyiha qisqa vaqt ichida yirik buniyodkorlikka aylandi. Puxta o'ylangan reja, aniq maqsad asosida 2019-yildan amaliy harakatlari boshlab yuborildi. Qariyb o'n yil davomida misli ko'rilmagan qurilish-buniyodkorlik ishlari bajarildi. Bu jarayonda zamonaviy texnologiyalar va milliy an'analar uyg'unlashtirildi. Har bir element o'ziga xos ma'noga ega bo'lib, u umumiy konsepsiyani to'ldirib turishi bilan e'tibor tortishi shundan. Gumbazlar, ravoqlar, bezaklar – barchasi tarixiy an'analar asosida yaratilgan. Qurilish jarayonida minglab mutaxassislar ishtirok etdi. Me'morlar, tarixchilar, dizaynerlar va muhandislar birgalikda ishladi. Bu esa markazning mukammal shaklda buniyod etilishiga xizmat qildi. Islom sivilizatsiyasi markazi ichki tuzilishi

Markazda ulkan kutubxona, konferensiya zallari, ilmiy laboratoriyalar mavjud. Bu esa uni zamonaviy ilmiy maskanga aylantiradi. Inshoot arxitekturasida va infratuzilmasiga oid raqamlar ham uning naqadar ulkan va mukammal loyiha ekanini yaqqol namoyon etadi. Jami hududi qariyb 10 gektarni tashkil etadigan binoning umumiy foydali maydoni 42 ming kvadrat metr dan ortiq. Shu jihatdan u Markaziy Osiyodagi eng yirik ilmiy-ma'rifiy majmualardan biri hisoblanadi. Uch qavatli binoning uzunligi taxminan 161 metr, kengligi 118 metrni tashkil qiladi. Markazning asosiy gumbazi 65 metr balandlikkacha ko'tarilib, shahar manzarasiga alohida fusun bag'ishlagan. Bu raqamlar va imkoniyatlar markazning nafaqat me'moriy, balki funksional jihatdan ham yuqori darajada o'ylangan loyiha ekanini ko'rsatadi. Majmuaning ahamiyati faqat milliy miqyos bilan cheklanib qolmaydi. U jahon sivilizatsiyasi tarixini o'rganish, islomning insonparvarlik mohiyatini ochib berish va global ilmiy hamkorlikni rivojlantirishda muhim platforma sifatida xizmat qiladi. Markaz dunyo bo'yab turli davlatlardan kelgan yuzlab olimlarni birlashtirib, xalqaro ilmiy muloqot uchun keng imkoniyat yaratayotgani ham uning ahamiyatini yanada oshiradi. Bugungi kunda dunyoda turli diniy va madaniy qarama-qarshiliklar kuchayib borayotgan murakkab bir davrda mamlakatimiz ushbu markaz orqali islomning haqiqiy mohiyati – ma'rifat, tinchlik va taraqqiyot g'oyalari ilmiy asosda namoyon etmoqda. Shu jihatdan olib qaraganda, mazkur majmua nafaqat ilmiy muassasa, balki sivilizatsiyalar o'rtasida muloqot ko'priki vazifasini bajaradigan strategik loyiha hisoblanadi. Markazning jahon miqyosidagi o'rmi yana shu bilan ham belgilanadiki, u ko'lami va konsepsiyasi jihatidan dunyodagi islom sivilizatsiyasiga bag'ishlangan eng yirik komplekslardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Bu yerda jamlangan qo'lyozmalar, ilmiy tadqiqotlar va madaniy ekspozitsiyalar nafaqat O'zbekiston, balki butun insoniyat tarixi uchun muhim manba vazifasini o'taydi. Shu bois, markaz kelgusida xalqaro turizm, ta'lim va ilm-fan integratsiyasida ham muhim o'rin tutishiga shubha yo'q. Islom sivilizatsiyasi markazi o'tmish, bugun va kelajakni birlashtirgan betakror ma'naviy-ma'rifiy makondir. U ajdodlar merosini asrab-avaylash, uni chuqur o'rganish va keng jamoatchilikka yetkazish orqali Uchinchi Renessans poydevorini mustahkamlashga xizmat qilishi shubhasiz. Endi maqolamiz avvalidagi ona sayyoramizda umrguzaronlik qilayotgan ikki mingdan ortiq millat va elat hamda dunyoning yetti mo'jizasi haqidagi fikrlarga qaytsak. Islom sivilizatsiyasi markazi dunyoda an'qo'li bilan buniyod etilgan sakkizinchi mo'jizaga aylanishi mumkinmi?! Fikrimizcha, mumkin! Dunyoning yetti mo'jizasi birini yaratgan millat nega endi sakkizinchi mo'jizani yarata olmas ekan?! Xulosa o'rinda aytmoqchi bo'lganimiz, Islom sivilizatsiyasi markaziga kelib, ko'zingiz bilan ko'ring va yangi O'zbekistonda dunyoning sakkizinchi mo'jizasi qad rostlaganiga o'zingiz guvoh bo'ling!



sohalarida ulkan kashfiyotlar qilindi. Bu kashfiyotlar keyinchalik Yevropa Uyg'onish davriga asos bo'lib xizmat qildi. Ikkinchi Renessans davrida esa madaniyat, san'at va adabiyot yuksak darajaga ko'tarildi. Me'morlik, naqshoslik, kitobat san'ati rivojlandi. Bu davrda yaratilgan asarlar bugungi kunda ham qadr-qimmatini yo'qotgani yo'q. Xorazm ilmiy maktabi matematik va astronomik kashfiyotlari bilan mashhurlikka erishgan bo'lsa, Buxoro diniy-falsafiy bilimlar markazi sifatida shuhrat topdi. O'z navbatida, Samarqand astronomiya markaziga aylandi.

bo'limlar markazning eng qiziqarli qismlaridan biridir. Bu yerda ularning ilmiy merosi keng yoritilgan.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi xalqaro jamoatchilik va jahon OAV e'tiborida bo'lishda davom etmoqda. Nufuzli nashr va telekanallar o'z sahifa va efir vaqtdan markaz haqidagi xabarlar keng joy ajratmoqda. Materiallar xalqaro jurnalist, tahlilchi va ekspertlar tomonidan tayyorlanib, loyihaga nisbatan global professional hamjamiyatning yuqori qiziqishini ko'rsatmoqda.

THE ECONOMIST

Britaniya nashri Islom sivilizatsiyasi markazi faoliyatiga bag'ishlangan navbatdagi materialni e'lon qildi. Xususan, maqolada mazkur markaz mamlakatdagi islohotlar va uning xalqaro maydondagi ahamiyati ortishi nuqtayi nazaridan yoritilgan. Qayd etilishicha, majmua O'zbekiston Prezidenti tashabbusi asosida amalga oshirilgan mualliflik loyihasi bo'lib, insonparvarlik, bag'rakenglik va ma'rifat g'oyalari tayanadigan izchil davlat siyosatini aks ettiradi. Bu yondashuv zamonaviy dunyo chaqiriqlariga munosib javob sifatida baholandi. Maqolada markaz O'zbekistonning zamonaviy madaniy va intellektual qiyofasini shakllantirishda muhim omil sifatida tavsiflangan. Shuningdek, mamlakatning o'z tarixiy merosini chuqur anglash va uni global kun tartibiga uyg'unlashtirishga intilishi ta'kidlangan. Markaziy Osiyoga ilmiy va falsafiy an'analar asrlar davomida shakllangan, jahon tamadduniga katta ta'sir ko'rsatgan hudud sifatida e'tibor qaratilgan. Shu bilan birga, me'moriy an'analar va zamonaviy texnologiyalar uyg'unligi madaniy o'zlikni saqlagan holda modernizatsiya yo'li tanlanganini ko'rsatadi.

EL MUNDO FINANCIERO

Ispaniyaning El Mundo Financiero nashrida e'lon qilingan materialda ta'kidlanishicha, Toshkentda barpo etilgan Islom sivilizatsiyasi markazi yangi O'zbekistonning Uchinchi Renessans g'oyasi doirasidagi strategik madaniy va intellektual loyiha sifatida baholandi. tarixiy meros, zamonaviy texnologiyalar va ilmiy tadqiqot salohiyatini uyg'unlashtirgan holda sivilizatsiyalar o'rtasida muloqot va bilim almashuvini ta'minlovchi global platforma sifatida namoyon bo'lmoqda. Bugun Markaziy Osiyo yuragida yuzaga kelgan bir loyiha o'z ko'lami va ahamiyati bilan jahon e'tiborini tortmoqda. Islom sivilizatsiyasi markazi nafaqat me'moriy yodgorlik, balki mintaqaning o'tmishi, buguni va kelajagini bog'lovchi intellektual ko'prikdir.


24.KG

Qirg'izistonning ommabop nashrida berilgan maqolada ta'kidlanishicha, Toshkentda barpo etilgan mazkur markaz mamlakatning eng yirik ma'naviy-ma'rifiy va ilmiy loyihalaridan biri bo'lib, O'zbekistonning ko'p ming yillik tarixi, boy madaniy merosi va jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasini kompleks tarzda namoyon etuvchi muhim ilmiy va madaniy makon sifatida baholanmoqda. "Islom sivilizatsiyasi markazi mintaqa xalqining uch ming yillik tarixini, intellektual salohiyatini, madaniy ildizlarini va jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasini aks ettiradi. Zero, mamlakatda yuritilayotgan siyosat asosida ilm-fan va ta'lim ustuvorligi mujassam. Chunki aynan bilim, ma'rifat va inson salohiyatini rivojlantirish orqali kuchli davlat va erkin jamiyatni barpo etish mumkin", deyiladi maqolada.

O'ZJOKU talabasi Aiza SHAROFIDDINOVA tayyorladi.

Iftixor

Toshkent. Eski shahar. Xastimom. Oqshom. Ko'klamning sohir hislar to'la mayin nafasi ufurib turibdi. Samodagi yulduzlar Islom sivilizatsiyasi markazi binosining nurligumbaziga qo'nishga navbat talashgandek g'ujg'on o'ynaydi go'yo. Markazning bor bo'y-basti tabarruk zamin uzra ruhiy halovat taratib, kishi qalbini hapriqtirib yuboradi.



maskanni ko'rish, tariximizni his qilishi va bilishi shart. Bu yerlar tez-tez kelib ko'rishga arziydigan darajada obod bo'libdi. Tunov kuni o'g'lim va nabiralirim bilan majmuaning ichkaridagi zallarini ko'rgan edik. Bugun atrofi bir o'zim aylangim keldi. Bu kunlarga guvoh bo'lish, afsuski, ko'plab mahalladosh do'stlarimiz, aka-ukalarimizga nasib qilmadi. Bizga esa ko'rsatganiga shukr.

Toshkentliklarning qiziq bir odati bor. Tanimagan hamsahri bilan gurunglashib qolsa, gap gapga ulanib ketsa, albatta, qaysi mahalladan ekanini surishtiradi. Shunday kezlarda o'zim tug'ilib o'sgan, shu yerdagi maktabda o'qigan, oila qurgan, 25 yoshimga qadar istiqomat qilgan maskanimni g'urur va iftixor bilan tilga olaman: "Xastimomdanman!". Savol bergan odamning yuzida shu zahoti havas bilan birga kaminaga hurmat paydo bo'ladi va doim munosabat bir xil yangraydi: "Juda ulug' joylardan ekansiz!".

Xastimom azaldan Toshkentning islom, ilm-ma'rifat, hunarmandchilik va savdo-sotiq markazlaridan biri bo'lgan. Bunga ushbu maskanda yashab o'tgan ko'plab mutafakkir, islomshunos olim, diniy ulamolar, hududning jug'rofiy joylashuvi, irrigatsiya inshootlari — anhor va ariqlari sabab bo'lgan. "Xastimom" so'zi esa "Hazrati Imom" atamasining qisqartirilgan shakli. Bu nom musulmon olami imomlaridan biri Abu Bakr Muhammad Qaffol Shohiy maqbarasi nomidan olingan. Mahalliy xalq uning hurmatidan bu joyni shunday atagan.

Umuman olganda, bugun O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi mahobati, maydoni va qamroviga ko'ra, dunyoda islom tarixi, madaniyati va sivilizatsiyalarini o'rganish hamda targ'ib etishga qaratilgan yirik majmualardan biri bo'lib tarix zarvarlariga kirmoqda.

Majmua atrofini ikki marta aylanib chiqdik. Osmonga qarasma, go'yo bu yerdan ketgim kelmayotganini sezgandek, g'ujg'on o'ynagan yulduzlar lipillab ko'z qisadi. Ularga havasim keldi. Axir har kuni maftunkor manzarani ko'kdan tomosha qiladi. Yulduzga xos miltiragan jilvasini bir paytlar bola bo'lib yugurib yurgan ko'chalarim o'mida qad rostlagan muhtasham majmuaning devorlariga nur qilib yetkazish bilan band.

Nuruniylik baribir o'z so'zini aytar ekan — otam bilan onam uyga qaytish taraddudiga tushib qoldi. Xastimomning tarovatli oqshomi bizni yana qaytib kelish sharti bilan kuzatib qo'ydi.

FUSUNKOR XASTIMOM OQSHOMI
yulduzlar jilvasida jo haqiqatlar



Nodir MAHMUDOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Ana shunday haybatli manzara og'ushida muazzam maydon yurtdoshlarimiz, xorijdan kelgan mehmonlar bilan gavjum. O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi rasman ochilganiga hali ko'p bo'lmadi. O'tgan sanoqli kunlarda bu muhtasham majmuaning dovrg'ul olam uzra taralloqda, buni mahobati maskanni o'z ko'zi bilan ko'rish uchun dunyoning turli mamlakatlaridan atay kelayotgan sayyohlar oqimi ham dalillab turibdi. Ularning hayrat to'la yuz ifodasidan o'zbek xalqining bunyodkorlik va donishmandlik zakosiga hurmat-ehtirom sezisiz.

tashbihi bilan band. Oilaviy hayratimizni fusunkor Xastimom oqshomining mahobati bilan uyg'unlashtirishga harakat qilaman. Otam qariyb yarim asr yashagan, onam bilan turmush o'rtog'im kelin bo'lib tushgan, o'zim ham chorak asr voyaga yetgan qadrdon mahallamiz hududi qachondir dunyoni o'ziga rom qilishini hech birimiz hayolimizga ham keltirmaganmiz.

To'g'ri, Xastimom dahasi azaldan musulmon olamini o'ziga jalb qilib kelgan. Bu yerdagi Baroqxon, Mo'yi Muborak madrasalari, Namozgoh va Tilla Shayx masjidlaridan iborat ansambli obidalarini bir bor ko'rishga ishtiyomandlar doim bo'lgan. Ammo bu ziyorat tor doirada, asosan islom e'tiqodidagi kishilarning muqaddas tarixiy maskani sifatida edi. Zero, Xastimom nafaqat yurtimizda, balki butun islom olamida alohida nufuz va e'tibor qozongan tabarruk maskandir.

Bugun u O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi bunyod etilgan sharofati ila nafaqat tarixiy, shu bilan birga o'zida azaliy qadriyatlarini jo qilgan eng ilg'or va zamonaviy arxitektura majmuasi o'laroq irqi, dini, e'tiqodidan qat'i nazar, minglab emas, millionlab odamlar bir bor ko'rishni niyat qilayotgan manzil maqomini oldi.

Markazning Qorasaroy ko'chasiga qaragan Ulug'bek portali zinasiga qadam bosar ekanimiz, otam to'xtashimizga ishora qildi.

— Uyimiz taxminan mana shu joyda joylashgan edi, — dedi otam qo'li bilan ishora qilib chegaralarni ko'rsatar ekan. —



Bugun esa tumonat odam bir paytlar hovlimiz bo'lgan hudud orqali shunday muqaddas majmuaga kirib-chiqib turibdi.

Qadriyatlarimizning yozilmagan qonun-qoidalarini ko'p. Otam oilamiz uchun bir vaqtlar boshpana bo'lgan xonadonimiz o'rnida turib, bu yerlarda yashab o'tgan ajdodlarimiz, qo'ni-qo'shni, qarindoshu mahalladoshlarimiz xotirasiga Qur'on oyatlaridan tilovot qildi. Yuzimizga fотиha tortdik va ruhimiz ancha yangillashdi, nazarimda.

Ota-onamni toliqtirib qo'ymaslik maqsadida ohista yurib, hududni aylandik. Odamlarni kuzatdim. Tevarakning go'zalligi barchani birdek maftun qilgan. Chiroqlar nuri va devorlarda aks etayotgan ajabovur

tasvirlar kichkintoy sayyohlarning quvnoq hayqirig'iga sabab bo'lyapti. Biroq bundan hech kim bezovtalanib, yuz burishtirayotgani yo'q. Chunki barchaning yuzida tabassumga uyg'un hayrat va hamma o'zining o'sha hayrat olamiga singib ketgan.

Sababi, bu yerda mo'jiza ustiga mo'jizalar guvohi bo'lish mumkin. Bugun Eski shahar yuragida zamonaviy texnologiyalar va tarixiy xotira uyg'unlashgan yangi madaniy makon namoyon bo'lmoqda. Prezidentimiz tashabbusi va g'oyasi asosida barpo etilgan Islom sivilizatsiyasi markazida qosh qoraygach, noyob 3D mepping-shou tomoshabinlarga taqdim etilmoqda. Loyiha O'zbekiston muzey makonida zamonaviy

raqamli texnologiyalar orqali tarix va ma'rifat g'oyalarini yetkazishga qaratilgan ilk yirik tashabbuslardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Islom sivilizatsiyasi markazi bugun nafaqat ilmiy va ma'rifiy mazmuni, balki innovatsion va kreativ yechimlari bilan ham jamoatchilik e'tibori markazida. Majmua ichkarisidagi ekspozitsiyalar ilg'or raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan bo'lsa, uning tashqi me'moriy qiyofasi ham tomoshabinlar uchun o'ziga xos sahnaga aylangan. Quyosh botib, qorong'i tusha boshlashi bilan markaz devorlarida yorug'lik, rang va harakat uyg'unligida namoyish etilayotgan 3D mepping-shou tarixini ko'z oldingizda jonlantiradi.

Mazkur mepping-shouni tomosha qilish uchun markaz atrofiga har safar 5000 dan ziyod mahalliy aholi va xorijlik mehmon to'planadi. Tomosha ikki seansda namoyish etiladi. Har bir chiqish katta qiziqish va olqishlar bilan qarshi olinadi. Ushbu vizual loyiha odamlar qalbida o'ziga xos tuyg'ular uyg'otib, tarix va ma'rifati yangi shaklda his qilish imkonini bermoqda.

Bir payt odamlar orasidan bir kishi biz tomon quchoq ochib kela boshladi. Qarasam, shu mahallada yashagan qo'shimiz Rahim amaki ekan. U otamdan chamasiz 4-5 yosh katta. Ko'rinishidan ancha bardam, tetik. "E, iye, o'zimizning xastimomliklarim", deya ko'rishishga chog'landi. Ming yillik qadrdonlar kabi bir-birimizni bag'rimizga bosdik. Xastimomda o'tgan davrlarni esga oldik.

— Hammangiz kelib yaxshi qilibsizlar, — dedi Rahim amaki otamga yuzlanib. — Har bir yurtdoshimiz bu noyob madaniy

Bir eksponat tarixi



XIV ASRNING OLTIN SIRI
Jabduqlardagi nafis bezaklar

Markaziy Osiyoda XIV asrga oid ot jabduqlarining bezak qismlari o'rta asr harbiy madaniyati va zodagonlar turmush tarzining muhim belgilaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Zarhal yuritilgan kumushdan tayyorlangan ushbu nafis buyumlar amaliy vazifasi bilan birga egasining ijtimoiy mavqei va qudratini ham namoyon etgan.

Mazkur artefaktlar mintaqada shakllangan yuksak metalsozlik va zargarlik an'analarning yorqin namunasi. O'sha davrda ot nafaqat transport vositasi, balki harbiy kuch, siyosiy nufuz va saroy marosimlarining muhim ramzi bo'lgan. Shu sababli ot jabduqlari ko'pincha qimmatbaho metallardan tayyorlanib, murakkab naqshlar bilan bezatilgan.

— Ushbu bezaklar zarhallangan kumushdan ishlangan bo'lib, ularning yuzasiga o'yama va naqsh solish texnikasi qo'llangan, — deydi O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi ilmiy kotibi Rustam Jabborov. — Metall ustalari kumush yuzasiga nafis islimiy va girih uslubidagi naqshlarni o'yib, so'ng oltin qoplama bilan bezab, buyumlarga hashamat bag'ishlagan. Har bir detal taxminan 7,5 santimetr diametrga ega bo'lib, ot jabduqlarining turli qismiga — jilov, yugan yoki tasmlarga mahkamlangan.

XIV asrda Markaziy Osiyo davlatlari harbiy otlig' qo'shinlari bilan mashhur bo'lgan. Ayniqsa, bu davrda shakllangan harbiy an'analarning keyinchalik temuriylar davrida yanada takomillashgan. Ot jabduqlarini bezash san'ati esa saroy ustaxonalari va zargarlik markazlarida rivojlangan. Bunday buyumlar ko'pincha hukmdorlar, amirlar yoki yuqori martabali lashkarboshilarga tegishli bo'lgan.

Bugun ushbu noyob bezaklar Buyuk Britaniyadagi mashhur kolleksiyadan olib kelinib, Islom sivilizatsiyasi markazida saqlanmoqda. Majmuada ko'plab bunday noyob va asl nusxadagi artefaktlar bilan tanishish mumkin. "Ular Markaziy Osiyo hunarmandchiligi, xususan, o'rta asr metall san'ati naqadar yuksak darajada rivojlanganini ko'rsatib beruvchi muhim tarixiy dalildir", deyiladi markaz xabarida.

Laylo ABUQAHHOROVA

O'tgan hafta tyutorimiz guruhimizga Islom sivilizatsiyasi markazidan reportaj qilish topshirig'ini berdi. Boshqalarni bilmadim, men bundan juda xursand bo'ldim. Aslida, markazga oilaviy boradigan bo'lsak ham u yerdan chiroyli lavhalar tayyorlashni dilga tukkandim. Lekin alohida topshirig' bilan borish boshqacha ekan.



Tafakkur kengliklarida

MAHOBATLI MARKAZ
BIZ UCHUN BEBAHO MEROS



sivilizatsiyasi markazidek mahobatni o'z ko'zimiz bilan ko'rish va o'zimizga meros bilib, u bilan g'ururlanish nasib qildi.

Shunday xayollar bilan ichkariga qadam qo'yganida o'zimizni go'yo zamonlar oralig'ida sayohat qilayotgandek his qildim. Har bir burchak, har bir eksponat insoniyat tarixining chuqur ildizlari, ilm-fan taraqqiyoti va boy madaniyatimizdan so'zlab turibdi. Insoniyat yaratilishidan ilm-fanning shakllanishi va rivojlanishigacha bo'lgan jarayonlar juda mukammal tarzda yoritilgan. Ayniqsa, qadimgi davrlarda foydalanilgan asbob-uskunalar, ilmiy kashfiyotlar va ularning amaliy ahamiyati haqida berilgan ma'lumotlar meni chuqur o'zga toldirdi.

Bu yerda tarix shunchaki o'qiladigan yoki eshitiladigan narsa emas, uni his qilaysiz, unda yashaysiz. Mana buni asl tarix darsi desa bo'ladi. Aslida, tarix darsi ko'plab o'quvchilar, talabalar uchun qiziqarli bo'ladi. Biroq bu yerga kelgan hech bir yosh loaqal bir narsadan hayratga tushmay ketmaydi. Ustozlari gapirib bergan tarixiy voqealar, tarixiy shaxslar ko'z oldida jonlanadi. Ayniqsa, Baqriya va So'g'd kabi qadimgi davlatlar maketlari nihoyatda did bilan, aniq va jonli tarzda aks ettirilgan. Ushbu maketlar orqali o'tmishdagi hayot tarzi, shaharsozlik madaniyati va tarixiy muhitni yaqqol tasavvur qilish mumkin.

Meni eng hayratga solgan jihatlardan biri buyuk allomalimiz — Abu Ali ibn

Sino, Abu Rayhon Beruniy, Jaloliddin Manguberdi, Mirzo Ulug'bek va Amir Temur kabi siymolarimizning zamonaviy texnologiyalar orqali "jonlantirilgani". Sun'iy intellekt yordamida ularning obrazlari turli tillarda "so'zlab", o'z fikrlarini ifoda etayotgandek taassurot uyg'otadi. Bu turli davlatlardan tashrif buyurayotgan sayyohlar uchun ham nihoyatda qulay va ta'sirchanligi bilan qimmatli.

Markazda saqlanayotgan tarixiy qo'lyozma va kitoblar o'ziga xos ahamiyatga ega. Ularning har biri o'tmishdan bizga yetib kelgan bebaho xotira, ajdodlarimizning ilg'or bo'lgan cheksiz intilishining yorqin dalili. Ushbu asarlar yonida turib, inson beixtiyor faxr tuyg'usini his qiladi, o'z ildizlariga yanada chuqurroq nazar tashlaydi.

Men uchun bu tarixiy nafaqat oddiy ekskursiya, balki ruhiy va ma'naviy sayohat bo'ldi. Bu yerda tarixni ko'radim, ilmini his qildim va ajdodlarimizning buyuk merosini yana bir bor angladim. Eng muhimi, bu maskan katta ilhom berdi — o'qishga, izlanishga va kelajakda yurtimiz ravnagi uchun munosib hissa qo'shishga bo'lgan ishtiyomim yanada ortdi.

Sarvinov MURONTALIYEVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi



Munosabat

O'SISH, INTEGRATSIYA VA YANGI IMKONIYATLAR

OLIY TA'LIM SOHASIDAGI ALOQALAR RIVOJLANIB BORMOQDA



Farhod AHROROV,
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi boshqarma
boshlig'i

O'zbekiston va Chexiya o'rtasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasidagi hamkorlik yangi mazmun va yangi ruh bilan boyib, muttasil rivojlanib bormoqda. Ilgari asosan alohida loyihalar, grant dasturlari va qisqa muddatli tashabbuslar doirasida shakllangan bu munosabatlar bugun yangi bosqichga — chuqur o'ylangan, tizimli va uzoq muddatli strategik sheriklik darajasiga ko'tarildi. Endi bu hamkorlik aniq maqsad va ustuvor yo'nalishlarga asoslangan holda shakllandi.

shakllantirish va global mehnat bozori talablariga mos mutaxassis bo'lib yetishish yo'lida muhim qadamdir. Asosiysi, bu jarayon ta'lim sohasidagi integratsiyani chuqurlashtirib, milliy kadrlar tayyorlash tizimini xalqaro mezonlar asosida takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Bugun ushbu dasturlarda tahsil olayotgan yoshlar etarga o'z sohasining yetuk mutaxassisi bo'lib yetishishi bilan birga turli madaniyat va ilm maktablarini bog'lovchi ko'priklar vazifasini bajaradigan intellektual avlod bo'lishiga umid qilamiz.

O'zbekiston va Chexiya o'rtasidagi hamkorlik faqat ta'lim aloqalari bilan cheklanib qolmayapti. Ilm-fan va innovatsiyalar maydonida ham tobora chuqurlashib, yangi mazmun kasb etmoqda. Erasmus+ va Horizon Europe kabi nufuzli xalqaro dasturlar doirasidagi qo'shma tadqiqotlar bu jarayonning muhim tayanchiga aylandi. Ushbu platformalar orqali ilmiy g'oyalarni almashinuv, innovatsion yechimlar ishlab chiqish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bo'yicha o'zaro manfaatli loyihalar hayotga tatbiq etilmoqda. Ayniqsa, bu hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari zamon talablariga hamohang shakllanayotgani diqqatga sazovor. "Yashil" texnologiyalar va barqaror rivojlanish sohasidagi tadqiqotlar atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga xizmat qilmoqda.

Universitetlar o'rtasidagi aloqalar tobora mustahkamlanib, nafaqat bilim almashish maydoni, balki ilmiy g'oyalar, innovatsion yechimlar va kelajak texnologiyalari yaratiladigan umumiy intellektual makonga aylanyapti. Bu jarayonda har ikki davlatning ta'lim tizimi bir-birini boyitib, tajriba va imkoniyatlar uyg'unligi orqali yangi sifat bosqichiga chiqmoqda.

Chexiya Respublikasi Bosh vaziri Andrey Babishning rasmiy tashrif bilan mamlakatimizga kelgani bu hamkorlikning yanada rivojlanishiga xizmat qiladi.

2020-2026-yillarda O'zbekiston va Chexiya o'rtasidagi ta'lim aloqalari mazmunan ham, miqyos jihatidan ham yangicha qiyofa kasb etdi. Bu yillarda



ikki mamlakatni bog'lab turgan akademik ko'priklar mustahkamlanib, ular orqali bilim, tajriba va ilmiy qarashlar erkin harakatlana boshladi. Ayniqsa, Chexiya oliy ta'lim muassasalarida o'qiyotgan o'zbekistonlik talabalar sonining yil sayin ortib borishi ushbu hamkorlikning eng yorqin ko'rsatkichlaridan biriga aylandi.

2020-yilda bu ko'rsatkich taxminan 350 nafarni tashkil etgan bo'lsa, bugun 700 ga yaqinlashib, o'sish tendensiyasini saqlab qolmoqda. Bu raqamlar ortida yuzlab yoshlarning orzu-istaklari va xalqaro maydonda o'z o'rini topishga imkoniyat berilgan. O'zbekistonlik talabalar uchun Chexiya nafaqat sifatli ta'lim manbai, balki innovatsion fikrlash, mustaqil tadqiqot olib borish va zamonaviy kasbiy ko'nikmalarni egallash imkonini beruvchi muhim ilm-fan mamlakatiga aylanmoqda. Ayniqsa, muhandislik, axborot texnologiyalari, iqtisodiyot va agrar soha kabi strategik yo'nalishlar bu hamkorlikning asosiy ustunlaridir. Ushbu sohalarida tayyorlanayotgan mutaxassislar kelgusida ikki davlat o'rtasidagi ilmiy va iqtisodiy aloqalarni yanada chuqurlashtiruvchi, yangi innovatsion g'oyalarni hayotga tatbiq etuvchi kuch sifatida maydonga chiqishi shubhasiz.

So'nggi yillarda oliy ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning poydevori yanada ishonchli va barqaror tus olmoqda. O'zbekiston Milliy universiteti, Samarqand davlat universiteti, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kabi yetakchi oliy ta'lim muassasalarining Chexiyaning nufuzli universitetlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishi esa bu jarayonga mazmun va sifat bag'ishlamoqda. Natijada talabalar va professor-o'qituvchilar almashinuv yangi bosqichga chiqib, ilm-fan hamda ta'lim sohasidagi g'oyalarni erkin almashinuv uchun keng imkoniyatlar ochilyapti.

Hozir O'zbekiston va Chexiya oliy ta'lim muassasalari o'rtasida yo'lga qo'yilgan qo'shma ta'lim dasturlari hamkorlikning eng samarali va zamonaviy ko'rinishlaridan. 2+2, 3+1, 1+1 va 1,5+0,5 kabi ta'lim modellari orqali talabalar ikki mamlakatning ilmiy va ta'lim muhitini o'z ko'zi bilan ko'rish, turli akademik an'analarni o'zlashtirish va xalqaro tajriba orttirish imkoniga ega bo'lmoqda. Bu dasturlar nafaqat bilim olish, balki dunyoqarashni kengaytirish, mustaqil fikrlashni

Suv resurslari va ekologiya bo'yicha qo'shma izlanishlar esa mintaqaviy ekologik muammolarga ilmiy asoslangan yechimlar topishga yo'naltirilgan.

Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt sohasidagi hamkorlik zamonaviy iqtisodiyotning asosiy drayverlaridan bo'lib, innovatsion mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqishga zamin yaratmoqda. Agrar innovatsiyalar yo'nalishidagi tadqiqotlar esa qishloq xo'jaligida samaradorlikni oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va ilg'or texnologiyalarni joriy etishda g'oyat ahamiyatli.

Eng muhimi, ushbu yo'nalishlardagi hamkorlik faqat nazariy izlanishlar bilan cheklanib qolmay, amaliy natijalarga yo'naltirilgan. Ilm-fan yutuqlari real iqtisodiyot va jamiyat ehtiyojlari bilan uyg'unlashib, innovatsion taraqqiyotga xizmat qilayotgani sheriklikning eng katta yutuq'idir.

Yaqin istiqbolida O'zbekiston va Chexiya o'rtasidagi hamkorlikni yanada chuqurlashtirishga qaratilgan qator muhim tashabbuslar ilgari surilmoqda. Xususan, 2026-yilda Chexiyada birinchi O'zbekiston — Chexiya rektorlar forumini o'tkazish tashabbusi alohida ahamiyatga ega. Bu forum universitetlar o'rtasidagi muloqotni tizimlashtirish, ustuvor yo'nalishlarni belgilash va yangi qo'shma loyihalarni boshlab berish uchun muhim platforma vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, akademik mobillikni kengaytirish orqali talabalar va professor-o'qituvchilarning o'zaro almashinuvini yanada faollashtirish, ularga xalqaro tajriba orttirish imkoniyatlarini kengaytirish rejalashtirilgan. Double Degree va PhD cotutelle kabi dasturlarni rivojlantirish esa ikki mamlakat ta'lim tizimlarining yanada uyg'unlashuviga, ilmiy maktablar o'rtasida chuqur hamkorlik shakllanishiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, qo'shma startaplar va innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash, texnoparklar va universitet inkubatorlari o'rtasida hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali ilm-fan va biznes o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Kelgusida ushbu sheriklik ikki mamlakat uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ilmiy salohiyatni oshirish va global ta'lim makonida munosib o'rin egallashda muhim omil bo'lishi shubhasiz.

Mamlakatimiz hayotida tarixiy voqealar silsilasi davom etmoqda. Davlatimiz rahbari "Burhoniddin Marg'inoniy" ilmiy-ma'rifiy va turizm majmuasining tantanali ochilish marosimida "Bugun biz orzu qilayotgan yangi Buxoriy, Termiziy, Farg'oni, Xorazmiy va Marg'inoniy avlodi qayerdan yetishib chiqadi? Albatta, ular mana shunday ma'rifat, ilm va ziyo maskanlarida tarbiya topadi", dedi.

Boshi osmonga yetgan favvoralar — bugun kelajakka yuksak ishonch bilan intilayotgan, o'zining yaratuvchanlik qudrati bilan dunyoni hayratga solayotgan xalqimizning ulug'vorlik ramzi. Bu favvoralar bilan sho'xchan o'ynashayotgan, ko'ngillarga xushnudlik ulashayotgan nasimi nayson — yangi O'zbekistondagi ulkan islohotlarning muattar shabadas. Qadimiy inshootlar, ko'hna devorlar poyida qad rostlayotgan muhtasham majmualar esa biz intilayotgan Uchinchi Renessansning mustahkam poydevoriga aylanmoqda.

Dildagi gaplar


MARG'ILONDA YANA BIR MA'RIFAT QUYOSHI CHARAQLADI

Farg'onaning fayzli saharida, moviy osmon ostida nur taratayotgan Marg'ilon shahrida yana bir ma'rifat quyoshi charaqladi. Davlatimiz rahbarining viloyatimizga tashrifi hamda "Burhoniddin Marg'inoniy" ilmiy-ma'rifiy va turizm majmuasining ochilishi nafaqat farg'onaliklar, balki butun islom olami, ilm-fan ahli uchun tarixiy shodiyonaga aylandi. Ushbu maskan o'tmishning oltin halqalari bilan erangi kunning yorqin ufqlarini bir-biriga bog'lagan, ajdodlar ruhini avlodlar shijoati bilan tutashirgan dargohdir. Prezidentimizning mazkur tantanali marosimida har bir so'zi, har bir fikri zimmamizga ulkan mas'uliyat va sharaf yukladi. Zero, ma'rifat ahli uchun bu kabi e'tibor — ijodiy parvozlar va yangi ilmiy kashfiyotlar uchun bitmas-tuganmas kuch-quvvat manbai.

Mamlakatimiz hayotida tarixiy voqealar silsilasi davom etmoqda. Davlatimiz rahbari "Burhoniddin Marg'inoniy" ilmiy-ma'rifiy va turizm majmuasining tantanali ochilish marosimida "Bugun biz orzu qilayotgan yangi Buxoriy, Termiziy, Farg'oni, Xorazmiy va Marg'inoniy avlodi qayerdan yetishib chiqadi? Albatta, ular mana shunday ma'rifat, ilm va ziyo maskanlarida tarbiya topadi", dedi. Bu so'zlar biz, oliy ta'lim mutasaddilari va professor-o'qituvchilar zimmasiga ulkan vazifa yuklaydi.

35 gektar maydonda barpo etilgan ushbu muhtasham majmua tarkibidagi Islom huquqshunosligi instituti nafaqat diniy, balki huquqiy va ijtimoiy fanlar rivoji uchun ham poydevor bo'ladi.

Yillar davomida ko'nglimizning tub-tubida bir armonli savol bizni qiynab kelar edi: nima uchun dunyo xalqlari o'zlarining afsonaviy qahramonlarini shunchalik e'zozlaydilar, biz jonli tariximizga, milliy mentalitetimizga timsoli bo'lgan qahramonlarimizga kelganda bir oz ortda qolmoqdamiz? Masalan, "Tarix otasi" deya e'tirof etiladigan Gerodot haqida hamma biladi. Bugun Gretsiyadagi Akropolga borgan har bir sayyohga tog' cho'qqisidagi ulkan xarsangni ko'rsatib, "Gerodot aynan shu yerda o'tirib shogirdlariga dars bergan", deyishadi. Bu shunchaki rivoyat bo'lsa-da, butun dunyo unga ishonadi, uni hurmat bilan ziyorat qiladi.



binolar mahobatini ko'radi, balki Abdulla Qodiriy tasvirlagan o'sha samimiy hayotni, milliy axloq-odobimizning yuksak cho'qqisini his qiladi. Bu hovli shunchaki me'morchilik obidasi emas, balki o'zligimizga, tariximiz va kelajak avlodlar tarbiyasiga sadoqatimiz ramzidir. Bu maskan Farg'ona davlat universiteti talabari va yosh olimlari uchun ham chinakam aaliyot va tadqiqot maydoniga aylinishi shubhasiz.

Davlatimiz rahbari e'tirof etganidek, Farg'ona bugun barcha sohada o'zining tajriba maktabiga ega bo'lib bormoqda. Rishton kulochligi, Qo'qon hunarmandchiligi va Marg'ilonning ipakchilik an'analari endi ilmiy asosda tadqiq etiladi. Prezidentimizning farg'onalik ustoz san'atkorlar mahorat maktablarini tashkil etish bo'yicha tashabbuslari universitetimizning san'atshunoslik va madaniyat yo'nalishlari uchun yangi ufqlar ochadi. Biz Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov kabi buyuk ovoz shohiblarining an'analarini davom ettiradigan yosh iste'dod egalarni tarbiyalashda ushbu majmua imkoniyatlaridan keng foydalanamiz.

Marg'ilon qadimdan "Ma'rifat ahlining vatani" deb atalgan. Bugun esa ushbu nom zamonaviy ifratuzulma, turizm salohiyati va ilm-fan yutuqlari bilan boyitilmoqda. Prezidentimiz tashabbusi bilan barpo etilayotgan "Yangi O'zbekiston" massivlari, AT parklar va ta'lim muassasalari Farg'onaning qiyofasini tubdan o'zgartirmoqda. Bu islohotlar zamirida xalqni rozi qilish maqsadi mujassam.

Biz — Farg'ona davlat universiteti jamoasi Prezidentimizning nutqidan kelib chiqib qator vazifalarni o'zimiz uchun belgilab oldik. Burhoniddin Marg'inoniyning "Hidoya" asari va boshqa huquqiy merosini zamonaviy huquqshunoslik bilan bog'lagan holda tadqiq etish, majmuaning turizm salohiyatini oshirish uchun gid-tarjimonlar tayyorlash va hudud tarixini ilmiy asoslab shular jumlasidan.

Tashrif viloyatimiz uchun yangi taraqqiyot davrini boshlab berdi. Biz, ziyolilar ushbu ezuq ishlarining faol ishtirokchisi bo'lib, yangi O'zbekistonning Uchinchi Renessans poydevorini qo'yishda bor kuch-g'ayratimizni safarbar etamiz.

Bahodirjon SHERMUHAMMADOV,
Farg'ona davlat universiteti rektori

ISLOHOTLAR SAMARASI

Beruniy tumanida ham bo'y ko'rsatayotir

Mamlakatimizdagi keng qamrovli islohotlar nafaqat poytaxtda, balki eng chekka hududlarda ham samara bermoqda. Yangi O'zbekiston g'oyasi asosidagi islohotlar markazida inson qadri, manfaatlari va farovon hayoti turibdi. Bu jarayonlarni Qoraqalpog'istonning Beruniy tumani misolida yaqqol ko'rish mumkin.



Rahima YO'LDOSHEVA,
Xalq deputatlari Beruniy tumani
kengashi deputati

Mazkur hududda so'nggi yillarda ifratuzulmani rivojlantirish, aholi turmush darajasini oshirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy sohalarni takomillashtirish bo'yicha qator amaliy ishlar qilindi. Ayniqsa, Xalq deputatlari tuman kengashi deputatlari faolligi, tashabbuskorligi va joylardagi muammolarga yechim topishdagi ishtiroki aholi ishonchini yanada mustahkamlashda muhim omil bo'lmoqda.


Tumanda yo'li ifratuzulimasini yaxshilashga alohida e'tibor qaratilgan. Ilgari aholini



Obod manzillar



USHBU MAQOLANI
QORAQALPOQ TILIDA
HAM O'QISH UCHUN
QR-KODNI SKANER
QILING!



Ijtimoiy sohada ham muhim o'zgarishlar kuzatilmoqda. Maktablar, maktabgacha ta'lim tashkilotlari va tibbiyot muassasalari ta'mirlanib, zamonaviy jihozlandi, ayrimlari yangidan qad ko'tardi. O'lis hududlardagi oilaviy poliklinikalar faoliyati yaxshilanib, aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat sifati oshdi.

Xalq bilan ochiq muloqot tizimi yo'lga qo'yilgani, joylarda muntazam ravishda o'tkazilayotgan sayyor qabullar, aholi murojaatlarini o'rganish va ularga tezkor yechim topish amaliyoti o'ziga xos an'anaga aylanayotir.

Albatta, hali yechimini kutayotgan masalalar yo'q emas. Biroq muhim jihati shundaki, bugungi kunda muammolar yashirilmayapti, aksincha, ochiq muhokama etilib, ularni hal etish bo'yicha aniq choralar ko'rilmoqda. Bu esa davlat va jamiyat o'rtasidagi ishonchli muloqot shakllanganidan dalolat beradi.

2026-yilning 18-19-aprel kunlari O'zbekiston davlat drama teatrida premyerasi bo'lib o'tgan, buyuk shoir va mutafakkir bobomiz Alisher Navoiyning bebaho adabiy merosi — "Layli va Majnun" dostoni asosida sahnalashtirilgan spektakl ana shunday muhim madaniy voqealik bo'ldi.

Spektakldan so'ng

Bugun mamlakatimizda madaniyat va san'at tizimini zamonaviy talablarga asosida rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamlı islohotlar kechmoqda. Natijada sohaning moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib, kadrlar salohiyati oshib, xodimlarning ijodiy mehnati munosib rag'batlantirilayotir. Mazkur harakatlar natijasida madaniyat va san'at sohasi sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilayapti, jamiyatda ma'naviy muhit yuksalayotir, ijodkorlar uchun keng imkoniyatlar yaratilib, milliy madaniyatning raqobatbardoshligi ortmoqda. Shu bilan birga, tarixiy merosni asrash va zamonaviy infratuzilmani rivojlantirish orqali madaniy turizm kengayib, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotga ham sezilarli hissa qo'shmoqda.



NAVOIY DAHOSI SAHNADA



Nodirbek SAYFULLAYEV,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, professor

Teatr san'ati shunchaki sahnadagi tomosha emas, balki insoniyatning o'zini anglash vositasi va yuksak ma'naviyat maskanidir. Unda hayotiy voqealar, insoniy tuyg'ular va jamiyatdagi dolzarb masalalar jonli ijro orqali tomoshabin qalbiga yetkaziladi.

Kino, televideniye yoki internetdan farqli o'laroq, teatrdagi aktyor va tomoshabin o'rtasida bevosita ruhiy aloqa o'rnatiladi. Tomosha davomida yuzaga keladigan energiya almashinuvi insonni chuqur mulohaza yuritishga, yaxshilikni yomonlikdan ajratishga chorlaydi. Shu bois, teatr asrlar davomida o'z jozibasini yo'qotmay, ma'naviy poklanish va tarbiya o'chog'i bo'lib kelmoqda.

So'nggi yillarda yurtimizda teatr san'atiga qaratilayotgan e'tibor va g'amxo'rlik natijasida sohaning rivojlanish sur'ati sezilarli darajada oshdi. Yangi tashabbuslar, zamonaviy yondashuvlar va tizimli islohotlar nafaqat ichki imkoniyatlarni kengaytirmoqda, balki xalqaro maydonda ham sohaning mavqegini mustahkamlayotir.

Davlatimiz rahbarining 2024-yil 22-noyabrda "Teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori soha taraqqiyotida yangi davrni boshlab berdi.

Ushbu hujjat asosida "milliy qahramon" va "inson qadri uchun" mavzularida spektakllar yaratish, dramaturg va rejissyorlar uchun maxsus mukofotlar joriy etish,

ta'lim va amaliyot uyg'unligini kuchaytirish, ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash, teatr jamoalari faoliyatini reyting asosida baholash, nodavlat teatrlarni rag'batlantirish, hududlarda gastrol va madaniy xizmatlarni kengaytirish kabi ko'plab ustuvor vazifalar belgilandi.

Buning samarasini yurtimiz teatrlarida qator jiddiy mavzularda yuksak saviyali spektakllar sahnalashtirilayotganida ko'rmogdamiz.

2026-yilning 18-19-aprel kunlari O'zbekiston davlat drama teatrida premyerasi bo'lib o'tgan, buyuk shoir va mutafakkir bobomiz Alisher Navoiyning bebaho adabiy merosi — "Layli va Majnun" dostoni asosida sahnalashtirilgan spektakl ana shunday muhim madaniy voqealik bo'ldi.

Bugungi globallashuv davrida turli begona g'oya va madaniy ta'sirlar kuchayib borayotgan bir sharoitda Navoiy merosi yosh avlodning ma'naviy dunyosini boyituvchi, milliy o'zlikni asrashga xizmat qiluvchi bebaho manba sifatida alohida ahamiyat kasb



Rahimov, shuningdek, Sirojiddin Sattorov, Nodir Muhammadjonov, Bekzod Zokirjonov, Husniya To'ramurotova, Buoysha Ibrohimova, Po'lat Normatov, Yunus Asqarov, Shukurjon So'fiyev kabi iste'dodli aktyorlar tomonidan ijro etilgan rollar spektaklning badiiy ta'sirchanligi yanada oshishiga xizmat qilgan. Har bir aktyorning obrazga chuqur kirib borishi, sahnadagi tabiiy harakatlari va his-tuyg'ularni ishonarli ifodalashi e'tirofga loyiq.

Ushbu spektakl premyerasi o'zbek teatr san'atining kelajigiga yuksak umidni jonlantirdi. Zero, spektakl zabardast rejissyor Bahodir Yo'ldoshevning hammaslagi rassom Georgiy Brim bilan tandemdagi ko'plab ishlari, jumladan, Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostoni asosida (Shuhrat Rizayev insensirovkasi) sahnalashtirilgan "Iskandar" spektaklini teatr muxlislari yodiga soldi. Har ikkala spektaklda ham tasavvufiy falsafa, inson umri va uning mazmuni borasidagi mushohada yorqin namoyon bo'ladi.

Shuningdek, Asqar Xolmo'minov ayni spektakl orqali o'zbek teatrlarining rejissyorlik an'alarini tiklaganday bo'ldi. Shu o'rinda bunday xulosalar tasodifiy emasligi va teatr san'ati rivoji uchun yetuk rejissyorlar yetishtirib berish muhim ekanini anglab, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida rejissyorlarni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratib kelinayotganini ta'kidlash joiz. Bu borada O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Olimjon Salimov, O'zbekiston xalq artisti Valijon Umarovning talaba yoshlarga saboq berish uchun institutga jalb etilgan ta'kidlangan e'zgu maqsadlarning ifodasi deyish mumkin.

Teatr sahnasidagi mumtoz obrazlar jamiyatda olijanob fazilatlar va yuksak estetik did tantanasiga xizmat qiladi. Ushbu spektakl tomoshabin uchun chinakam ma'naviy ozuqa va milliy g'urur manbai bo'lib qolguvidir. Yana ta'kidlash joizki, bugungi murakkab va tezkor axborot oqimlari davrida teatr san'ati insonni ichki sukunatga, tafakkur va mushohadaga chorlaydigan noyob makon sifatida yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ayniqsa, mumtoz merosimizni sahna talqinida namoyish etish orqali yosh avlod ongida milliy o'zlikni mustahkamlash, yuksak ma'naviy qadriyatlar ruhiya tarbiyalash imkoniyati kengaymoqda. "Layli va Majnun" kabi asarlar sahnada jonlanar ekan, ular nafaqat estetik zavq bag'ishlaydi, balki inson qalbidagi ezgulik, sadoqat va poklik kabi tuyg'ularni uyg'otib, jamiyat ma'naviy immunitetini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bu sahna asarini ko'rgan har bir tomoshabin Navoiyning o'qigan bo'lsa, tasavvurlari yanada teranlashadi, bordiyu chuqur o'rganmagan bo'lsa, uni o'rganishga ishtiyoqi oshadi. Pirovardida esa u ham teatrga, ham adabiyotga oshno bo'ladi.

Shu nuqtayi nazardan, teatr jamoalari zimmasiga yanada katta mas'uliyat yuklanadi. Har bir sahna asari tomoshabin nafaqat zavq, balki fikr, savol va ichki o'zgarish olib kelishi lozim. "Layli va Majnun" spektakli ana shunday asarlar sirasiga kirib, tomoshabin o'z ruhiy olamiga nazar tashlashga undaydi.

Teatr sahnasidagi mumtoz obrazlar jamiyatda olijanob fazilatlar va yuksak estetik did tantanasiga xizmat qiladi. Ushbu spektakl tomoshabin uchun chinakam ma'naviy ozuqa va milliy g'urur manbai bo'lib qolguvidir.

etadi. Bu meros insonni yuzaki ko'ngilochar narsalardan ko'ra chuqurroq mushohada yuritishga va hayotning mazmuni haqida teran o'ylashga undaydi.

Mumtoz adabiyotimiz durdonalarining teatr sahnasiga olib chiqilishi nafaqat madaniy merosni saqlash, balki uni xalqchil tilda qayta jonlantirish vositasidir. Sahnadagi har bir chiqish orqali xalqimizning necha asrlik qadriyatlarini, milliy o'zligi va ma'naviy ildizlari zamonaviy avlod uchun yangidan kashf etiladi.

G'oya muallifi va adabiy maslahatchi — O'zbekiston xalq yozuvchisi Xayriddin Sulon, insensirovka muallifi — Ikrom Iskandar, sahnalashtirish badiiy rahbari — O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at

arbobi Olimjon Salimov, sahnalashtiruvchi rejissyor Asqar Xolmo'minov kabi professional ijodkorlar mehnati mahsuli bo'lgan ushbu asar jamoatchilikda katta qiziqish uyg'otdi.

"Layli va Majnun" dostoni shunchaki ikki yoshning fojiviy muhabbati haqidagi qissa emas, balki inson ruhining yuksalishi va ma'naviy kamolot bosqichlarini yoritib beruvchi yuksak falsafiy asardir.

Unda Qaysning Majnuna aylanish jarayoni — insonning o'z nafsinı jilovlashi, dunyoviy manfaatlardan voz kechib, ilohiy ishq va mutlaq haqiqatga intilishi ramziy tilda bayon etilgan. Majnunning sahradagi uzlatda yashashi uning ichki olamidagi hayvoniy sifatlarini yengib, komil inson darajasiga ko'tarilganidan dalolat beradi.

Asar insonni sadoqat, hayo va qat'iyat kabi olijanob fazilatlar ruhiya tarbiyalaydi. Layli siymosidagi iffat va sabr, Majnun obrazidagi cheksiz fidoyilik va ahdga sodiqlik har bir davr kishisi uchun o'ziga xos axloq maktabi bo'lib xizmat qiladi.

Navoiy bu doston orqali insonning haqiqiy qiymati tashqi ko'rinishi yoki ijtimoiy kelib chiqishi bilan emas, balki qalbining pokligi va e'zgu g'oyalari yo'lidagi ruhiy matonati bilan o'lchanishini uqtiradi.

Spektaklning o'ziga xos tomoni unda Alisher Navoiy obrazining roviy sifatida ishtirok etishidir. Bu, bir tomondan, tomoshabinlarga Navoiy bobomizning ichki kechinmalarini ko'rsatib berish imkonini yaratsa, ikkinchi tomondan, sahna imkoniyatlari yetmaydigan muhim nuqtalarga roviy orqali alohida e'tibor qaratishga xizmat qilgan. Spektaklda Navoiy tilidan uning turkiy til qudrati va bu tilda yuksak asar

yaratish ishtiyoqi haqidagi mashhur baytlari yangraydi.

Bu orqali mutafakkir bobomizning nafaqat ishq kuychisi, balki milliy tilimiz va davlatchilgimiz fidoyisi bo'lgani yana bir bor namoyon etiladi. Spektaklni ko'rgan tomoshabin uning ayni shu jihatlarga e'tibor qaratishi joiz.

Mazkur spektakl tomoshabinidan muayyan ma'naviy tayyorgarlikni talab etadi. Zero, asarni Navoiy ijodidagi ramziylik hamda tasavvufiy kechinmalarni anglamay turib tomosha qilgan inson uni Shekspir asarlari ruhida yaratilgan fojiali sevgi qissasi sifatida qabul qilishi mumkin. Aslida, bu asar inson ruhining yuksaklikka intilishi, ilohiy ishq va komillik ifodasi sifatida talqin etilgan.

Mazkur spektaklni Shekspirning "Romeo va Julyetta" fojiasiga qiyoslash mumkin, biroq ularning mohiyati o'rtasida ulkan tafovut mavjud. Shekspir tragediyalarida insoniy taqdirlar real hayotiy chizgilar va ehtiroslar fonida tasvirlansa, Navoiy dostonlarida falsafiy mushohada va komil inson g'oyasi ustuvor. Bu asarlar shunchaki sevgi qissasi emas, balki ramziy ma'nolar silsilasi orqali inson ruhini poklikka, ma'naviy yuksaklikka chorlovchi bir da'vatdir.

Rejissyor ilohiy ishq haqidagi doston — "Layli va Majnun"ni sahnalashtirar ekan, uning sahnalarini bejiz "Romeo va Julyetta"ga qiyoslan qurmagan. Spektakldagi qahramonlarning niqoblarda chiqishi, Romeoning Julyettaqa talpingani kabi Qaysning temir konstruksiya yuqorisidagi Layliga talpinishi, ibn Salom va Tibalt kabi qahramonlarning qiyosiy olinishi kabilar Navoiy dostonining nafaqat Sharq afsonasi, balki umuminsoniy qadriyatlar ifodasi ekanini ham anglatadi.

Navoiy dahosi va yuksak badiiyatini sahnaga ko'chirish oson ish emas. Unga mos sahnaviy ifoda vositalarini topish ijodkorlardan katta mahorat talab etadi. Sintetik san'at bo'lmish teatrdan har bir komponentning o'z o'rinda va yuksak saviyada qo'llanishi, o'zaro uyg'unligi juda muhim ahamiyat kasb etadi. Sahna ochilganda uning ko'ndalangiga joylashtirilgan, har yerida narvonlari mavjud hamda yuqorisida ishtirokchilarning ijrosi

uchun hozirlangan, yuzaga ega bo'lgan ikkita temir konstruksiya sahnani ikkiga ajratib turganini ko'ramiz. Ichkarida esa tomoshabingaga g'ira-shira ko'rindigan tarzda ishq kuychilari o'tiribdi.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Munojot Teshaboyeva hamda artistlar Zarifa Alimqulova, Nodir Begmurodov, Yunus Asqarovdan iborat bu guruh ijrosidagi hazin qo'shiqlar, yuraklarni sel qiluvchi nolalar spektaklga ruh bag'ishlagan bo'lib, dostonning tub mohiyatini ochishga xizmat qilgan. Umuman, rejissyorning kompozitor Aqberpbergen Otegonov bilan hamkorligi samarali bo'lgan deyish mumkin.

Spektaklda jaranglagan musiqalarda nafaqat sharqona, balki Yevropa musiqasi bilan uyg'un kompozitsiyalar ham borki, ular tomoshabinning tasavvurini cheksizliklarga olib ketadi. Sahnaning ortiqcha bezaklarsiz, faqat g'ildirakli ikki qavatli temirlardan iborat ekani ham ko'rsatilajak voqealarning bir hudud, bir davr yoki bir mintaqaga oid emasligini, balki azalu abad afsonasi ekanini jonlantirishga imkon bergan.

Sahnalashtiruvchi rassom Mirjalol Xoliqov hamda liboslar bo'yicha rassom Ra'no Xayriddinovaning spektakl badiiy yechimi borasidagi ishlari ham tomoshabin e'tiborini tortadi.

Ssenografiyadagi minimalizm e'tiborni ortiqcha narsalardan saqlab, asosan voqealarga, qahramonlar ruhiyatidagi holatlariga qaratishga yordam beradi. Bunda birgina temir qurilma turli funksiyalarda namoyon bo'lib, spektaklning ramziyligini yanada oshirgan. Ayniqsa, spektakl so'nggida ushbu qurilmaning ikki sevishtan tobuti vazifasini bajarishi hamda ularning qadri bilan barchaning bu tobut tagidan galma-gal o'tib, go'yoki ularni qabrga olib ketayotgan holatning ifodalanihi juda ta'sirli bo'lib, spektaklning badiiy-g'oyaviy jihatini ochuvchi muhim nuqtadir.

Spektaklda tomoshabinlarning e'tiborini tortuvchi asosiy vosita — aktyorlar ijrosi. O'zbekiston xalq artisti Aziza Begmatova, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar Ilhom Berdiyev, Madina To'xtayeva, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Egamberdi



6

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetaları tahririyati" DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-546.
30570 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Avazbek Xudoyqulov
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'za yakuni — 23:20